



2023-yil yanvar-dekabr oyi uchun
dastlabki ma'lumot



JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(72) 221-51-26



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-dekabr oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1427034,5 ming AQSH dollariga yetdi va 2022-** yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan **738817,7 ming AQSH dollariga yoki 107,4 % ga ko'paydi.**



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-dekabr, ming AQSH dollariga)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1427034,5** +107,4 %

(2022- y.: **688216,8**)



Saldo

2023- y.: **-1080467,1**

(2022 y.: **-288860,6**)



Eksport

2023- y.: **173283,7** -13,2 %

(2022- y.: **199678,1**)



Tovarlar: **172579,6**



Xizmatlar: **704,1**



Import

2023- y.: **1253750,8** +156,6 %

(2022- y.: **488538,7**)



Tovarlar: **1253750,8**



Xizmatlar: **0,0**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zahiralariga qo’shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi **173283,7** ming AQSH dollariga (**13,2 %** ga kamaydi) va import hajmi **1253750,8** ming AQSH dollariga (**156,6 %** ga ko’paydi) yetdi. Hisobot davrida **-1080467,1** ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO’LGAN DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-dekabr, ming AQSH dollari)

XXR	Koreya Respublikasi	Chexiya	Rossiya	Turkiya
TSA – 709373,4	TSA – 316885,3	TSA – 90069,1	TSA – 73756,4	TSA – 61793,8
Eksport: 35815,4 Import: 673558,0 49,7 %	Eksport: 165,2 Import: 316720,1 22,2 %	Eksport: 106,8 Import: 89962,3 6,3 %	Eksport: 46792,9 Import: 26963,5 5,2 %	Eksport: 32933,6 Import: 28860,2 4,3 %
Litva	Germaniya	Qozog‘iston	Eron	Qirg‘iziston
TSA – 32534,0	TSA – 26151,5	TSA – 25676,8	TSA – 7230,9	TSA – 7156,1
Eksport: 502,2 Import: 32031,8 2,3 %	Eksport: 665,6 Import: 25485,9 2,0 %	Eksport: 13389,9 Import: 12286,9 1,8 %	Eksport: 3221,3 Import: 4009,6 0,5 %	Eksport: 5655,4 Import: 1500,7 0,5 %

Jizzax viloyati jahoning **70** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**49,7 %**), Koreya Respublikasida (**22,2 %**), Chexiya (**6,3 %**), Rossiyada (**5,2 %**), Turkiyada (**4,3 %**), Litvada (**2,3 %**), Germaniyada (**2,0 %**) va Qozog'istonda (**1,8 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Belarus, Moldova va Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti.

TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-dekabr, ming AQSH dollari)



Rossiya – 73756,4



Qozog 'iston – 25676,8



Qirg'iz Respublikasi – 7156,1



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ijobjiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Koreya Respublikasi, XXR va Turkiya, Litva, Rossiya va Qozog'iston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



JIZZAX VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, ming AQSH dollarri)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
XXR	124514,2	128556,2	709373,4
<i>Eksport</i>	50826,3	23489,8	35815,4
<i>Import</i>	73687,9	105066,4	673558,0
Koreya Respublikasi	93255,6	167471,0	316885,3
<i>Eksport</i>	547,7	117,2	165,2
<i>Import</i>	92707,9	167353,8	316720,1
Chexiya	3274,0	7530,7	90069,1
<i>Eksport</i>	0,3	12,5	106,8
<i>Import</i>	3273,7	7518,2	89962,3
Rossiya	78111,9	107536,8	73756,5
<i>Eksport</i>	43149,3	55521,0	46792,9
<i>Import</i>	34962,6	52015,8	26963,6
Turkiya	81555,0	78504,5	61793,9
<i>Eksport</i>	46001,4	42516,5	32933,6
<i>Import</i>	35553,6	35988,0	28860,3
Litva	26953,2	58011,6	32533,9
<i>Eksport</i>	410,6	169,9	502,1
<i>Import</i>	26542,6	57841,7	32031,8
Germaniya	8641,3	8903,9	29879,6
<i>Eksport</i>	332,9	4570,5	682,9
<i>Import</i>	8308,4	4333,4	29196,7
Qozog‘iston	31887,2	45071,6	25676,8
<i>Eksport</i>	14439,2	25100,0	13389,9
<i>Import</i>	17448,0	19971,6	12286,9
Niderlandiya	61,9	5,7	7858,3
<i>Eksport</i>	0,0	0,1	8,8
<i>Import</i>	61,9	5,6	7849,5
Eron	5486,2	5371,9	7230,8
<i>Eksport</i>	1390,4	2340,2	3221,3
<i>Import</i>	4095,8	3031,7	4009,5



Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.		
Qirg'iz Respublikasi	6706,2	13955,5	7156,2		
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	5448,2 1258,0	5518,8 8436,7	5655,4 1500,8	
Afg'oniston	7821,1	9669,2	6900,3		
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	7342,9 478,2	8650,5 1018,7	6257,5 642,8	
Hindiston	2625,8	5634,6	6835,6		
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	384,4 2241,4	2237,7 3396,9	1156,6 5679,0	
Italiya	12727,2	6388,7	6714,6		
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	5575,8 7151,4	4200,5 2188,2	3891,6 2823,0	
Tojikiston	7984,2	6156,6	4741,5		
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	4632,9 3351,3	4560,1 1596,5	4714,2 27,3	
Pokiston	7064,7	8991,8	4097,5		
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	5763,7 1301,0	6619,1 2372,7	4070,7 26,8	
Turkmaniston	763,3	1207,1	2712,0		
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	380,0 383,3	784,8 422,3	455,6 2256,4	
Shveysariya	710,1	2182,1	2629,5		
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,1 710,0	313,3 1868,8		2629,5
Belarus	2210,5	2242,1	2497,9		
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	340,2 1870,3	986,9 1255,2	794,5 1703,4	
Bangladesh	1450,0	1339,9	2374,5		
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,1 1449,9		1339,9 2374,5	




JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023-yil yanvar-dekabr)*

	Hajm ming AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jizzax viloyati	1427034,5	2,1 m.	100,0
Jizzax sh.	575575,9	2,7 m.	40,3
hududlar:			
Arnasoy	12639,2	72,6	0,9
Baxmal	9921,2	132,9	0,7
G'allaorol	494511,8	2,6 m.	34,7
Sharof Rashidov	16847,0	69,2	1,2
Do'stlik	14039,9	75,4	1,0
Zomin	27660,7	75,4	1,9
Zarbdor	21683,6	75,0	1,5
Zafarobod	7146,4	85,2	0,5
Mirzacho'l	2625,4	33,1	0,2
Paxtakor	18980,4	89,1	1,3
Forish	223311,9	2,0 m.	15,6
Yangiobod	1889,5	47,3	0,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollarlari




Eng quyisi hajm,
ming AQSH dollarlari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax shahar **40,3 %** ulush bilan **575575,9** ming AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Yangiobod **0,1 %** ulush bilan **1889,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMILAKATLARI VA BOSHQA XORIJYIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, ming AQSH dollarri, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-dekabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **8,3 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **18,1 %** ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-dekabr oyida 2022- yilning mos davriga nisbatan **18,1 %** ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **91,7 %** ni tashkil etdi.

Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, **118445,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **73355,8** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **45089,3** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



JIZZAX VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-dekabr, ming AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 73756,5
Eksport – 46792,9
Import – 26963,6



Qozog'iston

TSA – 25676,8
Eksport – 13389,9
Import – 12286,9



Qirg`iz Respublikasi

TSA – 7156,2
Eksport – 5655,4
Import – 1500,8



Tojikiston

TSA – 4741,5
Eksport – 4714,2
Import – 27,3



Turkmaniston

TSA – 2712,0
Eksport – 455,6
Import – 2256,4



Belarus

TSA – 2497,9
Eksport – 794,5
Import – 1703,4



Ukraina

TSA – 899,6
Eksport – 733,6
Import – 166,0



Ozarbayjon

TSA – 558,6
Eksport – 427,8
Import – 130,8



Moldova

TSA – 391,2
Eksport – 337,0
Import – 54,2



Armaniston


TSA – 55,0
Eksport – 55,0
Import – 0,0



Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**62,3 %**), Qozog'iston (**21,7 %**) hamda Qirg`iz Respublikasi (**6,0 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

JIZZAX VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr, ming AQSH dollar, ulushi, % da)



Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi

7,6 %

Jami eksportdagи ulushi

38,5 %

Jami importdagи ulushi

3,4 %



Jizzax viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **109142,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **66687,7** ming AQSH dollar, import hajmi esa **42454,7** ming AQSH dollariga yetdi.


Shuni takidlash lozimki, YEOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyordi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyordi soni **153** taga yetdi va ular tomonidan **173283,7** ming AQSH dollari qiymatidagi (*2022-yilning mos davriga nisbatan 13,2 % ga kamaydi*) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr, ulushi % da)



Jizzax viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinnlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinnlarda – XSST**) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



JIZZAX VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollarri		O‘zgarish sur’ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	199678,1	173283,6	102,1	86,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Hayvon va o’simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	67,7	34,2	0,0	50,5	0,0	0,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	3245,5	4336,6	100,6	133,6	1,6	2,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	52,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Ichimliklar va tamaki	95,8	77,9	0,0	81,3	0,1	0,1
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	54418,6	38371,8	159,0	70,5	27,3	22,1
Sanoat tovarlari	97724,6	86637,3	78,4	88,7	48,9	50,0
Turli xil tayyor buyumlar	21413,7	19756,6	125,0	92,3	10,7	11,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	6327,5	9006,1	127,6	142,3	3,2	5,2
Xizmatlar	1535,0	704,1	3,3 m.	45,9	0,8	0,4
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xhash mahsulotlar	14796,8	14359,0	136,7	97,0	7,4	8,3

Ekspert tarkibida tovarlar ulushi **99,6 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**50,0 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**22,1 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**11,4 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollarri	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	30288,8	68,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	6519,1	69,8
Hayvonlar uchun ozuqlar (maydalangan donlardan tashqari)	74,8	15,0 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1017,5	2,7 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	71,3	87,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	6,6	47,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1522,4	55,2
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	226,4	118,3
Qog'oz massasi va makulatura	5639,3	3,1 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	555,9	154,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	34,2	50,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Bo'yoqlar va taninlar	6189,1	128,2
Birlamchi bo'limgan shakldagi plastmassalar	0,0	0,0
O'g'itlar	5502,7	83,1
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1826,9	94,2


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollarri	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	6184,2	7,1
Kauchuk mahsulotlar	0,0	0,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'limgan minerallardan mahsulotlar	8300,2	78,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	264,4	64,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyoj qismlari	3607,2	123,1
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari)	1,0	15,1
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	63,8	88,6
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	18257,7	88,1
Har xil tayyor buyumlar	80,2	159,1
Oyoq kiyimlar	0,0	0,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1401,9	3,0 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqgan mamlakat, agar kelib chiqgan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023-yilning yanvar-dekabr oyida MDH mamlakatlariiga **73355,8** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **42,3 %** ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-dekabr oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, XXR, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **86,2 %** ni tashkil etdi.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr, % da)





**JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI
VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)**

Davlatlar	ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	55521,0	46792,9	128,7	84,3	1	1
XXR	23489,8	35815,4	46,2	152,5	4	2
Turkiya	42516,5	32933,6	92,4	77,5	2	3
Qozog'iston	25100,0	13389,9	173,8	53,3	3	4
Afg'oniston	8650,5	6257,5	117,8	72,3	5	5
Qirg'iz Respublikasi	5518,8	5655,4	101,3	102,5	7	6
Tojikiston	4560,1	4714,2	98,4	103,4	9	7
Pokiston	6619,1	4070,7	114,8	61,5	6	8
Italiya	4200,5	3891,6	75,3	92,6	10	9
Eron	2340,2	3221,3	168,3	137,7	12	10
Polsha	3656,0	1661,7	192,1	45,5	11	11
Hindiston	2237,7	1156,6	5,8 m.	51,7	13	12
Belarus	986,9	794,5	2,9 m.	80,5	16	13
Gruziya	599,4	770,4	131,4	128,5	20	14
Ukraina	397,6	733,6	24,0	184,5	22	15
Germaniya	4570,5	682,9	13,7 m.	14,9	8	16
BAA	416,1	586,3	78,1	140,9	21	17
Iraq	338,1	557,5	173,3	164,9	24	18
Litva	169,9	502,1	41,4	3,0 m.	27	19
Turkmaniston	55521,0	46792,9	128,7	84,3	19	20



JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

*(2023- yil yanvar-dekabr)**

	Hajm ming AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
--	------------------------------------	----------------------------	-----------------



Jizzax viloyati 173283,7 86,8 100,0

Jizzax sh.	79300,3	93,5	45,8
------------	---------	------	------



hududlar:

Arnasoy	7475,8	117,0	4,3
Baxmal	4581,1	131,5	2,6
G'allaorol	8908,1	91,2	5,1
Sharof Rashidov	4946,9	40,2	2,9
Do'stlik	12949,8	102,6	7,5
Zomin	9042,4	108,9	5,2
Zarbdor	16778,0	76,3	9,7
Zafarobod	2261,1	173,6	1,3
Mirzacho'l	1015,6	14,7	0,6
Paxtakor	13441,4	81,0	7,8
Forish	10830,9	90,3	6,3
Yangiobod	1550,5	48,4	0,9

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollarlari



Eng quyisi hajm,
ming AQSH dollarlari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax sh. 45,8 % bilan 79300,3 ming AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Mirzacho'l 0,6 % bilan 1015,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



JIZZAX VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-dekabr oyida import hajmi **1253750,8** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **156,6 %** ga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**91,0 %**), sanoat tovarlari (**2,1 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**2,4 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **765212,1** ming AQSH dollariga ko'paydi va **1253750,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	488538,7	1253750,9	145,5	2,6 m.	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	964,2	4651,5	3,7 m.	4,8 m.	0,2	0,4
Mashinalar va transport asbob- uskulalari	351348,8	1141315,3	158,4	3,2 m.	71,9	91,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5085,0	13153,3	134,7	2,6 m.	1,0	1,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	5,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	47740,0	17248,9	184,7	36,1	9,8	1,4
Sanoat tovarlari	36237,7	26208,1	106,6	72,3	7,4	2,1
Turli xil tayyor buyumlar	6911,8	15208,3	63,1	220,0	1,4	1,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6033,0	6417,9	71,3	106,4	1,2	0,5
Xizmatlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	34218,3	29542,7	111,8	86,3	7,0	2,4



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	9797,8	39,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	10,9	0,0
Sabzavotlar va mevalar	2105,6	20,3
Kofe, choy, kakao,ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	179,4	3,2 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	3,7	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	1,3	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Metall rudalari va metall parchalari	164,3	3,9 m,
Probka va yog'och-taxtalar	2068,1	176,7
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	165,5	16,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	8823,6	12,6 m.
Ko'mir, koks va briketlar	4329,6	98,8
Gaz, tabiiy va sun'iy	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	4651,5	4,8 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	5930,1	53,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	11902,5	128,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2968,2	74,6
Noorganik kimyo moddalari	1508,8	64,4


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	5063,8	43,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2590,1	94,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	12922,1	86,2
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	533,0	128,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Boshqa transport uskunalari	822955,1	4,1 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	129311,7	117,4
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	157448,2	6,3 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	14588,2	160,4
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3970,2	130,2
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	2197,1	132,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	6446,4	3,5 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	391,2	5,5 m.



2023- yil yanvar-dekabr natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlari import ulushi **3,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **51,6 %** ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, ming AQSH dollari,
ulushi, % da)



2023- yil yanvar-dekabr oyida **332** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Litva, Turkiya, Qozog'iston va Rossiya) jami importning asosiy qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr, % da)





**JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI
HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI**
(yanvar-dekabr, yillar kesimida)

Davlatlar	ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	105066,4	673558,0	145,5	2,6 m.	2	1
Koreya Respublikasi	167353,8	316720,1	142,6	6,4 m.	1	2
Chexiya	7518,2	89962,3	180,5	189,3	8	3
Litva	57841,7	32031,8	2,2 m.	12,0 m.	3	4
Turkiya	4333,4	29196,7	2,2 m.	55,4	5	5
Germaniya	35988,0	28860,3	52,2	6,7 m.	9	6
Rossiya	52015,8	26963,6	101,2	80,2	4	7
Qozog'iston	19971,6	12286,9	6,7 m.	51,8	6	8
Niderlandiya	0,0	7849,5	2,3 m.	61,5	55	9
Hindiston	3396,9	5679,0	0,0	0,0	11	10
Eron	3031,7	4009,5	151,6	167,2	12	11
Italiya	2188,2	2823,0	74,0	132,3	14	12
Shveytsariya	1868,8	2629,5	30,6	129,0	15	13
Bangladesh	1339,9	2374,5	2,6 m.	140,7	18	14
Turkmaniston	422,3	2256,4	92,4	177,2	24	15
Belgiya	85,9	2033,8	110,2	5,3 m.	39	16
Ispaniya	172,7	1789,9	5,4	23,7 m.	36	17
Belarus	1255,2	1703,4	19,8	10,4 m.	19	18
Daniya	76,8	1642,1	67,1	135,7	41	19
Qirg'iziston	8436,7	1500,8	0,0	21,4 m.	7	20



JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI


(2023- yil yanvar-dekabr)

	Hajm ming AQSH dollarari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jizzax viloyati	1253750,9	2,6 m.	100,0
Jizzax sh.	496275,6	3,9 m.	39,6
hududlar:			
Arnasoy	5163,4	46,9	0,4
Baxmal	5340,1	134,2	0,5
G'allaorol	485603,6	2,7 m.	38,7
Sharof Rashidov	11900,2	98,8	0,9
Do'stlik	1090,0	18,1	0,1
Zomin	18618,3	65,6	1,5
Zarbdor	4905,6	71,0	0,4
Zafarobod	4885,3	69,0	0,4
Mirzacho'l	1609,9	157,9	0,1
Paxtakor	5538,9	117,6	0,4
Forish	212480,9	2,2 m.	16,9
Yangiobod	339,0	42,7	0,1


Eng yuqori hajm, ming AQSH dollarari




G'allaorol



Forish




Eng quyisi hajm, ming AQSH dollarari



Do'stlik



Mirzacho'l



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax sh. **39,6** % bilan **496275,6** ming AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Yangiobod **0,1** % bilan **339,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-dekabr oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **1141315,3** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **3,2** martaga ko‘paydi va importning umumiyligi hajmidagi ulushi **91,0 %** ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-dekabr)

XXR

650923,0 ming
AQSH doll.

57,0 %



Litva

31777,5 ming
AQSH doll.

2,8 %



2

Koreya Respublikasi

26,9 %

306810,3 ming
AQSH doll.



5

Germaniya

2,4 %

27290,5 ming
AQSH doll.



3

Chexiya

7,9 %

89923,2 ming
AQSH doll.




2023- yil yanvar-dekabr oyida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **789966,5** ming AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Jizzax viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR – **650923,0** ming AQSH dollari (**57,0 %**), Koreya Respublikasi – **306810,3** ming AQSH dollari (**26,9 %**) va Chexiya – **89923,2** ming AQSH dollari (**7,9 %**) kabi davlatlarga to‘g‘ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-dekabr oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **26208,1** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **72,3 %** ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)

11192,9 ming AQSH doll.
ulushi – 42,7 %



XXR

4967,4 ming AQSH doll.
ulushi – 19,0 %



Turkiya

2996,6 ming AQSH doll.
ulushi – 11,4 %



Rossiya

2374,5 ming AQSH doll.
ulushi – 9,1 %



Bangladesh

923,6 ming AQSH doll.
ulushi – 3,5 %



Germaniya



Sanoat mahsulotlari importi asosan yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**12922,1** ming AQSH dollari), cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**5063,8** ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**2590,1** ming AQSH dollari) va rangli metallar (**1478,3** ming AQSH dollari) boshqalardan tashkil topgan.